IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 23 Issue 01 AVGUST 2026

SO‘Z BILAN KURASHGAN SAHOBA: ABDULLOH IBN RAVOHA HAYOTI VA IJODI

Abdulhamid Zairiyev
Yangi asr universiteti o`qituvchisi

Yakubova Mahdiya Murod qizi
Filologiya va tillarni o’qitish:
Arab tili 2-kurs talabasi
+998 90 119 43 32
e-mail: yakubovamakhdia@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.21781750

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilk islom davrining mashhur shoir sahobalaridan biri Abdulloh ibn Ravohaning hayoti, adabiy faoliyati hamda islom she’riyatidagi o‘rni yoritilgan. Muallif uning hayoti, islomni qabul qilishi, Rasulullah sollallohu alayhi vasallam huzuridagi mavqei va shoir sifatidagi faoliyatini tarixiy manbalar asosida tahlil qiladi. Shuningdek, Abdulloh ibn Ravohaning she’riy uslubi, boshqa shoir sahobalar ijodi bilan o‘xshash va farqli jihatlari hamda she’rlarining badiiy xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida uning she’riy merosi ilk islom davri adabiyoti rivojiga munosib hissa qo‘shgani, islomiy va ma’naviyaxloqiy qadriyatlarning badiiy ifodasida muhim o‘rin tutgani yoritib beriladi.
Kalit so‘zlar: Abdulloh ibn Ravoha, islom adabiyoti, islom she’riyati, sahoba, arab she’riyati, shoir sahobalar, mumtoz arab adabiyoti, ansorlar.

Abstract. This article examines the life, literary activity, and contribution of Abdullah ibn Rawahah, one of the prominent poet-companions of the early Islamic period, to Islamic literature. Drawing on historical sources, it analyzes his acceptance of Islam, his position among the Companions of the Prophet Muhammad (peace be upon him), and his role as a poet. The study also discusses the distinctive features of his poetic style, compares his literary approach with that of other poet-companions, and evaluates the literary and moral characteristics of his poetry. The findings show that Abdullah ibn Rawahah's poetic legacy made an important contribution to the development of early Islamic literature and to the artistic expression of Islamic and moral values.
Keywords: Abdullah ibn Rawahah, Islamic literature, Islamic poetry, Companion, Arabic poetry, poet-companions, classical Arabic literature, Ansar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются жизнь, литературная деятельность и место Абдуллаха ибн Равахи — одного из известных поэтов-сподвижников раннего исламского периода — в истории исламской литературы. На основе исторических источников анализируются принятие им ислама, его положение среди сподвижников Пророка Мухаммада (мир ему и благословение), а также его деятельность как поэта. Особое внимание уделяется особенностям его поэтического стиля, сравнению его творчества с произведениями других поэтов-сподвижников, а также художественным особенностям его поэзии. Сделан вывод о том, что поэтическое наследие Абдуллаха ибн Равахи внесло значительный вклад в развитие ранней исламской литературы и художественное отражение исламских и нравственных ценностей.
Ключевые слова: Абдуллах ибн Раваха, исламская литература, исламская поэзия, сподвижник, арабская поэзия, поэты-сподвижники, классическая арабская литература, ансары.

KIRISH

Qadimgi arab she'riyati islomdan avvalgi davrda o'ziga xos kuchli ijtimoiy va siyosiy ta'siri bilan arab jamiyatida muhim o'rin tutgan. Bu davr manbalarda «Johiliya davri» deb yuritiladi. Qadimgi arab jamiyatida she'r oddiy adabiy janr emas, balki ulkan ijtimoiy va siyosiy kuch hisoblangan. Shoir bir necha misrasi bilan bir shaxsni madh etib, uning sha'nini ko'klarga ko'tarar, odamlar orasida shon-shuhrat qozonishiga sabab bo'lar yoki bir necha bayt bilan uni hajv qilib, qavmi orasida obro'sini to'kar, sha'niga dog' tushirar edi. Ba'zan shoirning bitta she'ri yillar davom etadigan qabilalararo urushlarga sabab bo'lar, baytlar bilan boshlangan nizolar qilich va qalqonlar bilan davom etadigan qonli to'qnashuvlarga aylanardi.

(Ziyavuddinova, 2012) Shu sababli bozorlarda o'qilgan she'rlar butun Arabiston bo'ylab tarqalib, odamlarning fikriga, qabilalar o'rtasidagi munosabatlarga va hatto siyosiy voqealarning rivojiga ta'sir ko'rsatardi.

Islom kelib, Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam risolatni yetkazganlaridan so'ng johiliya davrining mudhish odatlariga barham berildi. She'riyatga bo'lgan munosabat ham yangi mazmun kasb etdi. Endilikda hajv, qotillik va mayxo'rlikka targ'ib kabi qabih mavzular qoralanib, ularning o'rnini go'zal axloq, tavhid, yaxshilikka buyurish va yomonlikdan qaytarish kabi g'oyalar egalladi. Shu tariqa ular islom she'riyatining asosiy mavzulariga aylandi.

Islom davri o'ziga xos she'riyati bilan mashhur bo'lgan musulmon shoirlarni yetishtirdi.

Ular mushriklarning da'volariga she'r orqali javob berib, musulmonlarning ma'naviy ruhini mustahkamlashda muhim o'rin tutdilar. Ana shunday mashhur shoir sahobalardan biri Abdulloh ibn Ravoha bo'lib, u islomni ilk qabul qilgan ansorlardan edi. U nafaqat iste'dodli shoir, balki jasur jangchi sahoba sifatida ham tarixda munosib o'rin egallagan.

ABDULLOH IBN RAVOHA HAYOTI

Abdulloh ibn Ravoha Ansorlardan bo'lgan ulug' sahobalardan biri edi. Uning to'liq ismi

Abdulloh ibn Ravoha ibn Sa'laba ibn Horis ibn Xazraj Ansoriy Xazrajiy roziyallohu anhu. U «Abu Muhammad » va «Abu Ravoha» kunyalari bilan kunyalangan.Otasi Ravoha ibn Sa'laba ibn Horis Hazrajiy, onasi Kabsha bintu Voqid ibn Amr ibn Itnobadir. U islomni Mus'ab ibn Umayr roziyallohu anhu da'vati orqali qabul qildi (Ibn Hishom). Ikkinchi Aqaba bay'atida qatnashgan 12 nafar naqiblardan biri bo'lgan. Islomni qabul qilishidan avval kotib va shoir sifatida tanilgan bo'lib, keyinchalik o'z iste'dodini islom dinini ulug'lash, uni targ'ib qilish hamda dushmanlarning hajvlariga javob berishga bag'ishladi. Abdulloh ibn Ravoha nafaqat fasohatli shoir balki jasur jangchi ham edi. U Badr, Uhud, Xandaq, Mut'a va boshqa ko'plab janglarda qatnashdi. U janglarda she'rlari orqali musulmonlarning ma'naviy ruhini ko'tarar, dushmanlarga qarshi so'z bilan ham kurashar edi (Al-Kandahlaviy).

Bir kuni Payg'ambarimiz Rasulullоh sollalohu alayhi vasallam minbar ustida xutba qilayotgan edilar. Abdulloh ibn Ravoha masjidga kirib kelayotib Rasulullohning: «O'tiringlar» degan so'zlarini eshitdi. U masjidga to'liq kirib ulgurmasidan, eshik oldidayoq darhol o'tirdi. Rasulullоh bu itoatni ko'rib: « *Alloh seni O'ziga va Rasuliga bo'lgan itoatda ziyoda qilsin.*» deb duo qildilar (101 ulug' sahobiy,2022).

Rasulullоh sollalohu alayhi vasallam yana aytganlar: «*Insonlarning eng yaxshisi Abdulloh ibn Ravohadir.*» Abu Dardo roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda shunday deyiladi: Yozning jazirama issiq kunlarida Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam bilan g'azotlardan birida issiqlik tufayli sahobiylar qo'llarini boshlariga qo'yib yurar edilar. O'sha vaqtda oramizda Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam va Abdulloh ibn Ravoha roziyallohu anhugina ro'zador bo'lishardi (Imom al-Buxoriy, Imom Muslim). Abdulloh ibn Ravoha go'zal islomiy fazilatlarga ega, Alloh va Rasuliga itoatda peshqadam sahobalardan edi. U Islom yo'lida so'zi va qilichi bilan kurashgan sahobalardan biri edi.

ABDULLOH IBN RAVOHA IJODI

Abdulloh ibn Ravohaning yoshligi she’riyatga bo’lgan iste’dodi bilan ajralib turardi. U notiq shoir sifatida tanilgan va uning so’zlari o’z qabilasi va boshqalarni ham hayratga solgandi. Arab jamiyatida yozuv hali keng ommalashmagan bir davrda u savodli kotiblardan ham sanalardi. U ravon tili, kuchli bayoni va ta’sirchan she’riyati bilan mashhur bo’lib, Islomni qabul qilgandan so’ng butun iste’dodini din xizmatiga bag’ishladi. Uning she’riy mahorati, ayniqsa ilk Islom davrlarida muhim rol o’ynagan. Uning she’rlarida musulmon birodarlarini itoatga rag’batlantirish va ularga erishiladigan yaxshiliklarni eslatish, kofirlarga qarshi turish kabilar eng muhim mavzulardan bo’lgan. Abdulloh ibn Ravohaning she’rlari nihoyatda ta’sirchan bo’lib qalblarni larzaga solar, kishilarda islom yo‘lida sobitlik va shijoat uyg‘otar edi. Uning misralari nafaqat go’zal fasohat va balog’at namunasi, balki iymon va jasoratning ham yorqin ifodasi edi.

Bir kuni Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam undan: «She’rni qanday bitasan?» deb so’radilar. U javob berdi: «Avval uning mavzusi, mazmuni ustida tafakkur qilaman, keyin uni baytlar bilan ifoda etaman.» Shundan so’ng u quyidagi misralarni o’qidi:

أَ ا ـَ الْـَيْ ـِ إِنِ ال ـَّ ـُ ْ
ى الْـَ ـِ ـَ ـُ ا الـَ ـُ ـِيُ

Ey yaxshilik va sharaf egasi bo‘lgan Hoshim avlodi!

Albatta, Alloh sizni butun maxluqot ustida unga teng keladigani yo‘q fazilat bilan ustun qildi.

إِيَّ ـَ ـُ ـِي الْـَيْـَ أَ ـْ ـُ ْ
ـِ ا ـَّ ـَ ـُ ْ ـِي ال ـِي ـَّ ـُوا

Men sizdagi ezgulik nurini qalbim bilan tanidim,
Men ilg’agan haqiqatni ular (mushriklar) ko’ra olmadilar.

إِيَّ ـَ ـُ ـِي الْـَيْـَ أَ ـْ ـُ ْ
ـِ ا ـَّ ـَ ـُ ْ ـِي ال ـِي ـَّ ـُوا

Ulardan yordam yoki madad so‘rasangiz,
Eng muhim ishlaringizda ham sizni na panohiga olar, na qo‘llab-quvvatlar edilar.

ـَ ـُ ال ـُ ا ا أَكْ ـْ ـُ ـِ
ـْ ـِيُ ـُ ى وَ ـَ ـُ ا ال ـِي ـُ ـُوا

Alloh sizga ato etgan yaxshiliklarni bardavom qilsin, Musoga nusrat berganidek sizga ham nusrat ato etsin.

So‘ng Rasulullоh «Seni ham Alloh sobitqadam qilsin, ey Ibn Ravoha.» dedilar (Ibn Hajar al-Asqaloniy).

Shunday qilib, Abdulloh ibn Ravohaning she’riyati ilk islom davrida nafaqat badiiy ijod namunasi, balki islom da’vatining samarali vositalaridan biri sifatida ham muhim ahamiyat kasb

etgan. Uning she’rlarida diniy e’tiqod, axloqiy qadriyatlar va jihod ruhi uyg‘un holda namoyon bo‘ladi.

ABDULLOH IBN RAVOHANING ISLOM ADABIYOTIDAGI O‘RNI VA SHE’RIY USLUBI

Islomning ilk davrida she’riyat musulmonlar uchun nafaqat badiiy ijod vositasi, balki islom ta’limotini targ‘ib qilish, musulmonlarning ma’naviy ruhini mustahkamlash hamda mushriklarning da’volariga javob berishning muhim vositalaridan biri bo‘lgan. Ana shunday mas’uliyatli vazifani ado etgan shoir sahobalar orasida Hasson ibn Sobit, Ka’b ibn Molik va Abdulloh ibn Ravoha alohida o‘rin egallaydi. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam ushbu uch sahobaning she’riy iste’dodidan islom manfaatlari yo‘lida samarali foydalanganlar (Ibn Hishom).

Ularning barchasi bir maqsad yo‘lida ijod qilgan bo‘lsalar-da, she’riy yo‘nalish va uslublari jihatidan bir-biridan farq qilgan. Hasson ibn Sobit ko‘proq Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamni madh etish hamda mushriklarning hajvlariga javob beruvchi she’rlari bilan mashhur bo‘lgan. Ka’b ibn Molik esa tarixiy voqealarni badiiy ifodalash va qasidachilik an’analarini davom ettirgan shoir sifatida tanilgan (Ibn Hishom).

Abdulloh ibn Ravoha ijodi esa o‘zining samimiyligi, sodda va ravon tili hamda kuchli ma’naviy mazmuni bilan ajralib turadi. Uning she’rlarida murakkab badiiy tasvirlardan ko‘ra, inson qalbiga bevosita ta’sir etuvchi sodda, ammo chuqur mazmunli iboralar ustunlik qiladi. Shoir o‘z misralari orqali musulmonlarni Allohga tavakkul qilishga, sabr-toqatli bo‘lishga, taqvoni mahkam tutishga hamda Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamga sadoqatli bo‘lishga chorlaydi (Ibn Al-Asir).

Abdulloh ibn Ravohaning she’riyatida Qur’oni karim ta’limotining ta’siri yaqqol namoyon bo‘ladi. Tavhid, ixlos, sabr, ezgulik, rostgo‘ylik va go‘zal axloq kabi mavzular uning ijodida muhim o‘rin egallaydi. Shu jihatdan uning she’rlari faqat badiiy asar sifatida emas, balki ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatga ega bo‘lgan da’vat vositasi sifatida ham qadrlanadi.

Shuningdek, Abdulloh ibn Ravohaning she’riy uslubining yana bir muhim xususiyati nasihat ohangining kuchliligidir. U o‘quvchini hayratga solish yoki murakkab badiiy san’atlarni namoyish etishdan ko‘ra, qalbni tarbiyalash, ezgulikka undash va islomiy qadriyatlarni mustahkamlashni asosiy maqsad qilib olgan. Shu sababli uning she’rlari sodda tuzilishga ega bo‘lsa-da, mazmun jihatidan nihoyatda ta’sirchan hisoblanadi.

Abdulloh ibn Ravoha islom adabiyoti tarixida nafaqat iste’dodli shoir, balki ilk islom davri adabiyotining shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan shaxslardan sanaladi.

Uning she’rlari o‘ziga xosligi bilan musulmon shoirlari orasida ajralib turgan.

XULOSA

Abdulloh ibn Ravoha islom tarixida nafaqat fazilatli sahoba va jasur jangchi, balki ilk islom adabiyotining yirik namoyandalaridan biri sifatida ham muhim o‘rin egallaydi. U o‘zining yuksak iste’dodi, fasohati va chuqur e’tiqodi bilan she’riyatni islom da’vatining samarali vositasiga aylantirishga xizmat qilgan. Uning ijodi orqali musulmonlarning ma’naviy ruhini mustahkamlash, ezgulik va go‘zal axloqni targ‘ib etish hamda islom ta’limotining asosiy g‘oyalarini badiiy ifodalash mumkin bo‘lgan (Ibn Hishom, Ibn al-Asir).

Xulosa qilib aytganda, Abdulloh ibn Ravohaning she’riy merosi ilk islom davri adabiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning ijodi nafaqat tarixiy va adabiy jihatdan, balki ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati bilan ham bugungi kunda o‘z qadrini saqlab qolmoqda. Shoirning asarlarida ilgari surilgan yuksak axloqiy fazilatlar, insonparvarlik, sadoqat va ezgulikka chorlovchi g‘oyalar bugungi jamiyat uchun ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Shu bois Abdulloh ibn Ravohaning hayoti va ijodini o‘rganish islom adabiyoti tarixini chuqurroq anglash,

uning ma’naviy merosini tadqiq etish hamda kelajak avlodga yetkazishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, Abdulloh ibn Ravoha qilich bilan bo‘lgani kabi, so‘z bilan ham islom qadriyatlarini himoya qilgan va shu jihatdan tarixda «So‘z bilan kurashgan sahoba» sifatida munosib o‘rin egallagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Imom al-Buxoriy. *Al-Jome' as-sahih*.
2. Imom Muslim. *Sahih Muslim*.
3. Ibn Hishom. *As-Sirah an-Nabawiyyah*. Bayrut: Dor al-Kutub al-'Ilmiyya.
4. Ibn al-Asir. *Usd al-g‘oba fi ma’rifat as-sahoba*. Bayrut: Dor al-Kutub al-'Ilmiyya.
5. Ibn Hajar al-Asqaloniy. *Al-Isoba fi tamyiz as-sahoba*. Bayrut: Dor al-Kutub al'Ilmiyya.
6. Al-Kandahlaviy, Muhammad Yusuf. *The Lives of the Sahabah*. English Edition. Karachi: Darul Ishaat.
7. Ziyavuddinova, M. *Mumtoz arab adabiyoti* (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2012.
8. 101 ulug‘ sahobiy / Tuzuvchilar jamoasi. – Toshkent: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, 2022.